ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/25.27.12.FM/T.09.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI

ISMATOV ASKAR ANVAR O‘G‘LI

KATALIZATOR-BUFER QATLAM INTERFEYSIDA NANOZARRACHALAR SHAKLLANISH JARAYONLARI VA ULARNING UGLEROD NANONAYCHALARI O‘SISHIDAGI TA’SIRI

01.04.12 – Nanomateriallar fizikasi va texnologiyasi

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent-2026

UDK: 538.971 : 544.47 : 546.26-022.532

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

ISMATOV ASKAR ANVAR O‘G‘LI

Kataizator-Bufer qatlamlar sirtida o‘lchamlari boshqariladigan Ni nanozarrachalari shakllanish jarayonlari va ularning uglerod nanonaychalari sinteziga ta’siri..... 3

ISMATOV ASKAR ANVAR UGLI

Processes of nanoparticle formation at the catalyst–buffer layer interface and their effect on carbon nanotube growth..... 21

ИСМАТОВ АСКАР АНВАР УГЛИ

Процессы формирования наночастиц на интерфейсе катализатор–буферный слой и их влияние на рост углеродных нанотрубок..... 40

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works…….. 43

ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/25.27.12.FM/T.09.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI

ISMATOV ASKAR ANVAR O‘G‘LI

KATALIZATOR-BUFER QATLAM INTERFEYSIDA NANOZARRACHALAR SHAKLLANISH JARAYONLARI VA ULARNING UGLEROD NANONAYCHALARI O‘SISHIDAGI TA’SIRI

01.04.12 – Nanomateriallar fizikasi va texnologiyasi

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent-2026

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.1.PhD/FM1481 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dessertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.iplt.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Ashurov Xotam Baxronovich** texnika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Tajibayev Ilhom Ibrohimovich** fizika-matematika fanlari doktori, yetakchi ilmiy xodim, **Haqberdiyev Elshod Olmosovich** fizika-matematika fanlari bo`yicha falsafa doktori, katta ilmiy xodim,
Yetakchi tashkilot:	Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.27.12.FM/T.09.01 raqamli Ilmiy kengashning **2026 yil «3» dekabr soat 16^{00}** dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 33-uy. Tel./Faks: (+99871) 262-31-63, faks: (+99871) 262-32-54, e-mail: info@iplt.uz, Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti majlislar zali).

Dissertatsiya bilan Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (26/18 raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 33-uy. Tel: (+99871) 262-31-69.

Dissertatsiya avtoreferati **2026 yil «20» noyabr**da tarqatildi.

(2026 yil «20» noyabrdagi 26/18 raqamli reestr bayonnomasi).

X.B. Ashurov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

I.D. Yadgarov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.d., professor

U.K. Maxmanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ahamiyati. Bugungi kunda zamonaviy materialshunoslik va nanotexnologiyalarda fizik xususiyatlari boshqariladigan nanoo‘lchamli materiallarni sintez qilish va ularni amaliy qurilmalarga integratsiyalashga katta e’tibor qaratilmoqda. Istiqbolli materiallardan biri bo‘lgan uglerod nanonaychalari (UNN) yuqori mexanik mustahkamlik, elektr va issiqlik o‘tkazuvchanlik, kimyoviy barqarorlik hamda katta solishtirma sirt maydoniga ega bo‘lib, sensorlar, energiya saqlash qurilmalari, o‘tkazuvchi kompozitlar va boshqa funksional tizimlarda keng qo‘llanilishi mumkin. Biroq UNNlarning amaliy xususiyatlarini ta’minlash uchun ularning diametri, sirt zichligi, o‘sish yo‘nalishi va strukturaviy sifatini boshqarish talab etiladi.

Bug‘ fazadan kimyoviy cho‘ktirish (CVD) usulida UNNlarning nukleatsiyasi va o‘sishi katalizator nanozarrachalarining o‘lchami, zichligi va barqarorligiga bevosita bog‘liq. Fe katalizatori uglevodorodlarni parchalash va uglerodni eritish xususiyati tufayli UNN sintezida samarali bo‘lsada, yuqori haroratlarda zarrachalarning yiriklashishi, koalesensiyasi, taglik bo‘ylab diffuziyalanishi va uglerod bilan qoplanishi katalitik faollikning pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli yaxlit Fe yupqa plyonkasining termik ta’sir natijasida nanozarrachalarga ajralish qonuniyatlarini aniqlash boshqariladigan UNN sintezining muhim ilmiy masalasidir.

Fe nanozarrachalarining shakllanishi plyonka qalinligi va termik ishlov berish bilan birga katalizator joylashgan sirtning fizik-kimyoviy tabiatiga ham bog‘liq. SiO_2, Al_2O_3 va TiO_2 kabi bufer qatlamlar Fe atomlarining sirt bo‘ylab diffuziyasini cheklab, zarrachalarning o‘lchami, shakli va termik barqarorligiga ta’sir ko‘rsatadi. Bunda bufer qatlamning qalinligi, tuzilishi va Fe bilan o‘zaro ta’siri muhim omillar hisoblanadi. Biroq Fe plyonkasi qalinligi, termik ishlov parametrlari va bufer qatlam tabiatining birgalikdagi ta’sirini hamda ularning UNN morfologiyasi va strukturaviy sifatiga bog‘liqligini miqdoriy baholash masalasi yetarlicha o‘rganilmagan. Shu nuqtai nazardan, elektron-nurli fizik bug‘ cho‘ktirish (PVD) usulida hosil qilingan Fe yupqa qatlamlarining SiO_2, Al_2O_3, TiO_2 va sapfir sirtlarida nanozarrachalarga transformatsiyalanishini tadqiq etish, ularning o‘lchami va sirt zichligini boshqarish qonuniyatlarini aniqlash hamda UNN nukleatsiyasi va o‘sishiga ta’sirini baholash dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi. Dissertatsiyada Fe qatlamining qalinligi, termik ishlov rejimi va bufer qatlam turi nanozarrachalar morfologiyasini belgilovchi o‘zaro bog‘liq omillar sifatida tadqiq etilgan.

O‘zbekistonda ilm-fan, innovatsion texnologiyalar va zamonaviy materiallarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ilg‘or texnologiyalarni iqtisodiyotga joriy etish, ilmiy ishlanmalarni amaliyot bilan integratsiyalash va materialshunoslik tadqiqotlarini rivojlantirish ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son Farmoni[1], 2025-yil 27-dekabrdagi PQ-390-son qarori[2], 2026-yil 16-fevraldagi PF-

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 22.10.2024 yildagi PF-165-son
[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 27.12.2025 yildagi PQ-390-son

21-son Farmoni[3] hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning “Fizika, astronomiya, energetika va mashinasozlik” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi.

Uglerod nanonaychalari sintezida bug‘ fazadan kimyoviy cho‘ktirish usulining samaradorligi va nanonaychalar parametrlarini boshqarish bevosita katalizator nanozarrachalari hamda taglik (bufer) qatlamining o‘zaro ta’siriga bog‘liqligi xalqaro va mahalliy ilmiy jamiyatlar tomonidan keng tadqiq etib kelinmoqda. XXI asrning boshlarida e’tirof etilgan klassik ishlarda (Z.P. Huang, J. Robertson) Ni, Co va Fe kabi o‘tish metallarining yupqa qatlamlaridan termik ishlov berish orqali nanozarrachalar hosil qilish hamda TiN, SiO_2 kabi tagliklarda ularning sirt zichligini oshirish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Keyinchalik Suven Li (2017) va boshqa tadqiqotchilar tomonidan ko‘p qatlamli katalizator modellarini qo‘llash orqali nanozarrachalar o‘lcham taqsimotini nazorat qilish mumkinligi ko‘rsatib berildi.

So‘nggi yillardagi xalqaro ilmiy izlanishlar metall katalizator qatlamining termik parchalnish jarayonida bufer qatlamlarining (Al_2O_3, TiO_2) hal qiluvchi rolini aniqlashga qaratilgan. Ta’kidlash joizki, Al_2O_3 bufer qatlami metall atomlarining sirt bo‘ylab diffuziyasini va ichki qatlamlarga yutilishini cheklashi, shuningdek, yuqori haroratlarda Ostwald yetilishi (Ostwald ripening) tufayli nanozarrachalarning aglomeratsiyalanishini kamaytirishi aniqlangan. Turli tadqiqot guruhlari (EB-PVD, atom qatlamlab cho`ktirish (ALD) va magnetron changlatish usullarini qo‘llagan holda) Fe katalizatori va Al_2O_3/SiO_2 tandem bufer qatlamlari kombinatsiyasi bir devorli uglerod nanonaychasi (BDUNN) hamda vertikal yo‘nalgan ko‘p devorli (VYUNN) nanonaychalar diametrini va zichligini samarali boshqarish imkonini berishini tasdiqlaganlar. Shunga qaramay, yupqa Fe metall qatlamlarining (sub-nanometr va nanometr qalinlikdagi) harorat va vaqt rejimlariga bog‘liq ravishda faza o‘zgarishlari hamda bufer qatlam interfeysida nanozarrachalarga transformatsiyalanishining miqdoriy qonuniyatlari hamon to‘liq o‘z yechimini topmagan. O‘zbekistonda UNNlar va nanostrukturalarni olish, ularning nazariy hamda eksperimental asoslarini o‘rganish bo‘yicha sezilarli ilmiy maktab shakllangan. Qarshi davlat texnika universitetida prof. A.A. Rahmonqulov rahbarligida atsetilen pirolizi asosida UNN sintezi bo‘yicha tajribalar o‘tkazilgan bo‘lsa, O‘zFA U.A. Arifov nomidagi Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutida (IPLTI) bu boradagi tadqiqotlar tizimli yo‘lga qo‘yilgan. Xususan, U. Xalilov va uning ilmiy guruhi tomonidan molekulyar-dinamik modellashtirish usuli orqali UNN o‘sish va nukleatsiya jarayonlarining kompyuter simulyatsiyalari muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Shu bilan birga, Institutning “Amaliy nanotexnologiyalar” laboratoriyasida nanokatalizator zarrachalari va yupqa qatlamli strukturalarni PVD hamda CVD usullarida olish, ularning morfologiyasini tahlil qilish hamda muqobil energiya manbalarida (akkumulyator anodlarida) qo‘llash

[3]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.02.2026 yildagi PF-21-son

bo‘yicha amaliy va amaliy-innovatsion izlanishlar olib borilmoqda. Biroq, aynan elektron-nurli PVD usulida yotqizilgan Fe yupqa qatlamlarining SiO_2, Al_2O_3, TiO_2 va sapfir sirtlarida atomar darajadagi shakllanishi hamda bufer-katalizator interfeysidagi jarayonlarning UNN struktural sifatiga ta’sirini yaxlit tadqiq etish bo‘yicha izlanishlarni yanada chuqurlashtirish talab etiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog’liqligi. Tadqiqot Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutida huzuridagi IL-5421101842-son "Nanokatalizatorlar: shakllanishi, strukturasi, o'lcham effektlari va ularning uglerod nanomateriallari sintezi jarayonlariga ta'siri" nomli fundamental loyihasi doirasida olib borilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Elektron-nurli PVD usulida cho`ktirilgan Fe yupqa qatlamining qalinligi, termik ishlov rejimlari va bufer qatlam turining katalizator nanozarrachalari o`lchami va zichligiga hamda uglerod nanonaychalarining nukleatsiyasi, o’sishi va strukturaviy sifatiga ta`sir qonuniyatlarini aniqlash, shu asosda bir devorli nanonaychalar sintezi uchun optimal katalizator–bufer qatlam tizimi va sintez rejimlarini ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari:

elektron-nurli PVD usulida SiO_2, Al_2O_3 va TiO_2 bufer qatlamlari sirtida cho`ktirilgan Fe yupqa qatlamining qalinligini bug`lanish vaqti va emissiya toki orqali boshqarish rejimlarini ishlab chiqish hamda qatlamning element va fazaviy tarkibini aniqlash;

uzluksiz Fe yupqa qatlami termik ishlov berish orqali diskret nanozarralar tizimiga o`tish bosqichari va chegaraviy shartlarini aniqlash;

SiO_2, Al_2O_3 va TiO_2 nanostrukturalarda hosil qilingan Fe yupqa qatlami qalinligi, termik ishlov harorati va davomiyligini nanozarrachalar o'lchami, sirt zichligi va o'lcham taqsimotiga ta`sirini miqdoriy baholash, zarracha diametri va plyonka qalinligi orasidagi empirik bog'lanishni aniqlash;

UNN nukleatsiyasi va o'sishining katalizator zarrachalari bilan bog'liqligini, jumladan o'sish jarayonlari va katalizator deaktivatsiyasi fizik-kimyoviy sabablarini o'rganish;

turli katalitik tizimlarda ($Fe/SiO_2/Si$, $Fe/Al_2O_3/SiO_2/Si$, $Fe/TiO_2/SiO_2/Si$, Fe/sapfir) sintez qilingan UNNlarning strukturaviy sifati va morfologiyasini solishtirib, optimal katalizator–bufer qatlam dizaynini aniqlash;

harorat va gaz sarfi parametrlariga bog‘liq holda CVD jarayonida bir devorli uglerod nanonaychalari nukleatsiya kinetikasiga bufer qatlamining ta’sirini tadqiq qilish.

Tadqiqotning ob’ekti. Tadqiqotning asosiy obyektlari sifatida SiO_2, Al_2O_3, TiO_2 bufer qatlamlar hamda sapfir tagligi sirtida sintez qilingan Fe nanozarralari va ular asosida shakllangan UNNlar o`rganilgan.

Tadqiqotning predmeti. Turli oksid bufer qatlamlar sirtida Fe nanozarralarining shakllanish jarayonlari, zarralar o`lchami va taqsimotiga ta`sir etuvchi termik ishlov berish parametrlarini optimallashtirish, katalizatorlar sirtida UNNlar nukleatsiya jarayonlari va zaharlanish sabablarini aniqlash, bir devorli UNNlar sintezi jarayonlari tadqiqot ishining asosiy predmeti hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishini bajarish uchun namunalar sirtida SiO_2 qatlami hosil qilishda quruq termik oksidlanish metodi, Al_2O_3 va Fe yupqa qatlami hosil qilishda esa elektron nurli fizik bug` cho`ktirish usuli, TiO_2 qatlami hosil qilishda atom qatlamlab cho`ktirish, UNN sintezi uchun esa kimyoviy bug` cho`ktrish usulidan foydalanildi. Olingan namunalarning strukturaviy va morfologik tabiatini aniqlash uchun AFM, XPS, XRD, TEM, SEM, va Raman spektroskopiyasi singari analitik qurilmalardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

ilk bor, Amorf SiO_2 va Al_2O_3 sirtlarida yuqori zichlikdagi (28 nm, 302 zarra/μm^2) kvazi-sferik zarralar, kristall sapfir va TiO_2 sirtlarida esa qirralangangan va nisbatan siyrak zarrachalar (mos ravishda ≈68 nm, 17 zarra/μm^2 va ≈56 nm, 87 zarra/μm^2) hosil bo'lishi ko`rsatildi. Shu bilan birga, zarralarning sirtda notekis taqsimoti va yiriklashishi orqali ushbu kristall tagliklarda Fe atomlarining sirt diffuziyasini cheklashi amorf Al_2O_3 ga nisbatan sustroq ekanligi isbotlandi;

Al_2O_3 (120 nm)/ SiO_2 (160 nm)/Si tizimida elektron-nurli PVD usulida cho'ktirilgan Fe yupqa qatlamini 700 °C da 5 daqiqa termik ishlov berishda hosil bo'ladigan nanozarrachalar o'rtacha diametri (d) va boshlang'ich qatlam qalinligi (h) orasida $d \approx k \cdot h$ bog'lanishi aniqlandi. Adabiyotda Fe asosli tizimlar uchun keltirilgan keng oraliq ($k \approx 2–10$) ushbu sharoit uchun **ilk bor** $k \approx 4–6$ gacha toraytirildi. Bu katalizator zarrachalari o'lchamini boshlang'ich qatlam qalinligi orqali oldindan baholash va boshqarish imkonini beradi;

ilk bor, SiO_2, Al_2O_3/SiO_2, TiO_2/SiO_2 bufer qatlamlar va sapfir tagliklarda sintez qilingan UNNlar kompleks tahlil qilinib, bunda Al_2O_3(120 nm)/SiO_2(160 nm) tandemida sintez qilingan UNNlar sifati bo`yicha $TiO_2$ ga nisbatan 19,2 %, tabiiy $SiO_2$ ga nisbatan 33,3 %, sapfirga nisbatan 41,7 % ustunligigi ko`rsatildi;

ilk bor, nisbatan qalin (8-9 nm) *Fe* qatlamlarida ham Al_2O_3*(120 nm)/*SiO_2*(160 nm)* strukturasi yuqori sirt g`adir-budurligi (*Ra=1,06 nm*) hamda Fe zarralari bilan nisbatan kuchli o`zaro ta`sirlashuvi sababli, 700 °C haroratda bir devorli UNN sintezida eng samarali buffer qatlam tandemi ekanligi nazariy hisoblashlar (Raman RBM, *d=0,9 - 1,1 nm*) va amaliy usullar (SEM tasvirlarida, *d=3,6 nm*) orqali isbotlandi.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Ushbu tadqiqot natijalari turli tagliklar sirtida turli oksid bufer qatlamlardan foydalanib fizik va kimyoviy bug` cho`ktirish usullari orqali 300 zarra/μm^2 zichlikdagi o`rtacha diametri 25-30 nm bo`lgan Fe nanozarralari hosil qilishning optimal rejimlarini taqdim etadi. Bundan tashqari, katalitik hamda bufer qatlamlar qalinligi, termik ishlov harorati va vaqtini nazorat qilish orqali hosil bo`layotgan Fe zarralarini o`lchamini boshqarish imkoniyatlari aniqlangan. Ushbu zarralarni katalizator sifatida metan, vodorod gazlarini parchalashda, ammiak, Uglerod nanotolalari, Bor nitrit sintezida, fotoelektrokimyoviy suvni parchalash singari jarayonlarda faol qo`llanilishi mumkin. Shuningdek, ushbu tadqiqot ishida Fe nanokatalizatorlari yordamida vertikal yo`nalgan, bir devorli hamda ko`p devorli UNNlar sintez sharoitlari tajribalar orqali tasdiqlangan. UNNlar sifati va o`sish balandligini oshirish uchun yangi katalitik dizayn hosil qilish parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi quyidagilar ta`minlaydi: zamonaviy standartlashtirilgan usullarning qo'llanilishi, yuqori aniqlikdagi asbob-uskunalardan foydalanilganligi, statistik tahlilga yetarli bo'lgan eksperimental ma'lumotlar hajmi va natijalarning qayta takrorlanganda barqaror saqlanishi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, elektron-nurli PVD usulida cho'ktirilgan Fe yupqa qatlamlarining SiO_2, Al_2O_3, TiO_2 bufer qatlamlari va sapfir taglik sirtida nanozarrachalarga transformatsiyalanish qonuniyatlari hamda ularning o'lchami, shakli va sirt zichligiga ta'sir etuvchi omillar (qatlam qalinligi, termik ishlov harorati va davomiyligi, taglik tabiati) miqdoriy aniqlanib, katalizator zarrachalari o'lchamini boshqarishning ilmiy asoslari ishlab chiqildi. Shuningdek, katalizator–bufer qatlam interfeysi parametrlarining UNN nukleatsiyasi, o'sishi va strukturaviy sifatiga ta'siri ko'rsatilib, yuqori haroratda (850 °C) katalizator faolligini saqlovchi Al_2O_3/SiO_2 tandem bufer qatlami eksperimental asoslandi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa Fe katalizator qatlami qalinligini bug'latish vaqti va emissiya toki orqali aniq boshqarish rejimlari hamda yuqori zichlikdagi, bir jinsli Fe nanozarrachalarini hosil qilishning optimal termik ishlov sharoitlari aniqlanganligi bilan belgilanadi. Fe (8–9 nm)/ Al_2O_3 (120 nm) / SiO_2 (160 nm) / Si strukturasi asosida strukturaviy sifati yuqori (I_D/I_G=0,42), shu jumladan bir devorli (diametri 0,93–1,43 nm) UNNlar sintez qilish imkoniyati tajriba orqali ko'rsatildi. Olingan natijalar UNN asosidagi energiya saqlash tizimlari, o'tkazuvchan kompozit materiallar va sensorlar uchun katalizator–bufer qatlam parametrlarini maqsadli tanlash bo'yicha amaliy tavsiyalar sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilish.

Disertatsiya tadqiqoti davomida olingan natijalar O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo institutida O’zbekiston–Turkmaniston ilmiy hamkorligi asosida 2024–2025-yillarda bajarilgan AL-7623031231 raqamli «Siklopentadienil temir dikarbonil dimer asosida uglerodli nanonaylar sintez qilish va ularni fizik-kimyoviy xususiyatlarini o’rganish» mavzusidagi fundamental loyihada bufer qatlamlar sirtida Fe nanozarralarini hosil qilishning aniqlangan maqbul kinetik sharoitlarida foydalanildi (Fe qatlam qalinligi 8–9 nm, 700 °C, 5 daqiqa; Al_2O_3 (120 nm)/SiO_2 (160 nm) tizimida o’rtacha diametri 25–30 nm, zichligi ≈300 zarra/μm^2) (O`zR FAning 2026-yil 4-noyabrdagi № 4/1255-3131 sonli ma’lumotnomasi). Bu natijalar katalizator zarralari o’lchamini nazorat qilish muammosini hal etdi: o’lchamlari qat’iy boshqariladigan faol katalitik markazlar asosida yuqori sifatli, mukammal kristallangan bir devorli uglerod nanonaychalarini sintez qilish va ularning xususiyatlarini optimallashtirish imkoni yaratildi.

«Armatura-Izolyator zavodi (AIZ)» MChJ qo’shma korxonasida 2024–2026-yillarda amalga oshirilgan «Kremniyorganik polimer asosli IPP-10/1000-8A UHL1 va LK 70/10-3 UXL1 yuqori kuchlanish izolyatorlar samaradorligini oshirish» nomli amaliy loyihada Fe/Al_2O_3/SiO_2/Si, Fe/TiO_2/SiO_2/Si va Fe/SiO_2/Si geterotuzilmalari sirtida CVD usulida nanonaychalar sintezi bo’yicha olingan qonuniyatlardan, ya’ni oraliq qatlam tabiati, harorat rejimi va reaksiya

davomiyligining nanotuzilmalar morfologiyasi hamda sifatiga ta’siridan foydalanildi («AIZ» MChJ QKning 2026-yil 16-yanvardagi 19-sonli ma’lumotnomasi). Bu natijalar izolyatorlar kompozitida nanonaychalarning optimal konsentratsiyasi va bir tekis dispersiyalanishini ta’minlash muammosini hal etdi, buning natijasida IPP-10/1000-8A va LK 70/10-3 rusumli izolyatorlarning tashqi muhit omillari va mexanik kuchlanishlarga nisbatan ekspluatatsion bardoshliligi oshdi.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiya qilish. Tadqiqotning asosiy natijalari 3 ta respublika miqyosidagi hamda 4 ta xalqaro konferensiyalarda muhokama qilingan..

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusining asosiy qismini yoritib beruvchi natijalar asosida jami 12 ta ilmiy ishlar nashr etilgan bo`lib, ulardan 2 tasi xalqaro jurnallarda va 3 tasi mahalliy OAK doktorlik disertatsiyasining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etiladigan jurnallarda nashr ettirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi tuzilish jihatidan kirish, 4 bob, xulosalar qismi, adabiyotlar ro`yxati va ilovalardan tashkil topgan. Uning asosiy qismi 117 bet matn, 56 ta rasm va 7 ta jadvaldan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida katalizator–bufer qatlam interfeysida Fe nanozarrachalarining shakllanishi va uning uglerod nanonaychalari o'sishiga ta'siri mavzusining dolzarbligi ko'rsatilib, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekti, predmeti va qo'llanilgan usullari bayon etilgan. Ishning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi keltirilgan. Shuningdek, olingan natijalarning ilmiy yangiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, ishonchliligi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumot berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "Adabiyotlar tahlili va ilmiy muammolar holati" deb nomlangan bo'lib, unda uglerod asosli nanomateriallarning tuzilishi, xossalari va o'sish mexanizmlari, xususan 0D, 1D, 2D va 3D uglerod nanostrukturalari, ularning xirallik turlari va amaliy qo'llanish sohalari bo'yicha ilmiy manbalar tahlil qilingan. Bobda UNN sintezining asosiy usullari - yoy razryadi, lazer abelyatsiyasi va CVD usullari - qiyosiy tahlil qilinib, ularning afzallik va kamchiliklari ko'rsatib berildi. UNN o'sishida Fe, Ni va Co nanokatalizatorlarining roli, xususan Fe asosidagi katalizatorlarning morfologiyasi va faolligiga ta'sir etuvchi omillar - zarracha o'lchami, taglik tabiati, termik ishlov parametrlari - batafsil yoritildi. Fe nanostrukturalarni olish usullari (PVD, ALD, magnetron changlatish) o'zaro solishtirilib, ularning texnologik imkoniyatlari tahlil qilindi. Bobning yakuniy qismida UNN sintezida CVD metodining harorat, vaqt, katalizator qalinligi kabi texnologik parametrlar bilan o'zaro bog'liqligi ilmiy adabiyotlar asosida umumlashtirildi hamda mavjud tadqiqotlardagi bo'shliqlar - xususan, elektron-nurli PVD usulida yotqizilgan Fe yupqa qatlamlarining turli oksid bufer qatlamlar sirtida atomar darajadagi shakllanish qonuniyatlarining yetarlicha o'rganilmaganligi asoslab berildi.

Ikkinchi bob "Bufer-katalizator qatlamlarini hosil qilishning optimal sharoitlari va uglerod nanonaychalar sintezi uchun tajriba-tadqiqot hamda tahlil usullari" deb nomlangan bo'lib, unda tadqiqotda qo'llanilgan boshlang'ich materiallar - monokristall kremniy (KES, (100) orientatsiyali, qalinligi 375 μm) va sapfir tagliklar hamda ularni tayyorlash jarayonlari tavsiflangan.

Bu bobda SiO_2 qatlamini quruq termik oksidlanish usulida hosil qilish va uning qalinligini spektroskopik ellipsometriya yordamida o'lchash, Si/SiO_2 struktura sirtida Al_2O_3 qatlamini elektron-nurli PVD usulida hosil qilish, TiO_2 bufer qatlamini atom qatlamlab o'stirish (ALD) usulida sintez qilish hamda Fe kataliz qatlamini elektron-nurli bug'latish orqali olish bosqichlari batafsil bayon qilingan. Shuningdek, uglerod nanonaychalarini CVD usulida sintez qilish texnologiyasi va optimal sharoitlari, hosil qilingan namunalarning strukturaviy va morfologik xususiyatlarini aniqlashda qo'llanilgan SEM, TEM, STEM, AFM, XRD, XPS, FTIR va Raman spektroskopiyasi kabi analitik tahlil usullarining ishlash prinsiplari va o'lchov sharoitlari yoritildi.


Uchinchi bob "Fe nanostrukturalarning shakllanishi va ularga ta'sir etuvchi omillar tahlili" deb nomlangan bo'lib, bunda bug' fazadan cho'ktirilgan Fe yupqa qatlamlarining Al_2O_3 va SiO_2 bufer qatlamlari ustida hosil bo'lgan fazaviy holati SEM, EDX, XPS va XRD usullari yordamida tahlil qilingan. XPS spektrlari Fe atomlarining asosan metall holatda mavjudligini va sirtida qisman oksidlanish ehtimoli borligini ko'rsatdi (1-rasm).



a) b) c)


1-rasm. Yupqa Fe qatlamining XRD tahlillari (a), ko`ndalang kesim SEM tasviri (b) va XPS tahlili (c).

Termik ishlov ta'sirida kataliz yupqa qatlamidan nanostrukturalar shakllanish mexanizmi o'rganilib, 8 nm qalinlikdagi Fe qatlamida harorat oshishi bilan uzluksiz plyonkaning diskret nanozarrachalar tizimiga parchalanishi kuzatildi: 550 °C atrofida uzluksiz qatlam to'liq parchalanib, sferik shaklga yaqin nanozarrachalar hosil bo'lishi Atom kuch mikroskopi tasvirlari orqali ochib berildi (2-rasm). Bundan tashqari uzluksiz qatlamdan diskret nanozarralar shakllanish jarayonlarini yanada aniqroq tushunish uchun o`tkazilgan tadqiqotlarda, plyonka termik qizdirish natijasida dastlab atomlar tebranishi kuchayadi va energetik noqulay joylarda chegaralanish shakllana boshlaydi. Keyingi bosqichda, sirtda teshiklar hosil bo`ladi va ularning kattalashishi oqibatida Rimlar, ulardan keyin esa nanoorolchalar shakllanadi. Sirtda energiya qayta taqsimlanishi hamda sirt diffuziyasi tufayli atomlar ko`chishi sodir bo`ladi va bu jarayon Arrenius qonuni bo`yicha ifodalandi.



2-rasm. 8 nm qalinlikdagi uzluksiz Fe yupqa plyonkasining diskret nanozarralarga transformatsiya jarayoninig a) AFM va b) SEM tasvirlari.

Qatlam qalinligining nanostrukturalar shakllanishidagi ahamiyati, shuningdek termik ishlov berish harorati va vaqtining hosil bo'layotgan nanozarralar morfologiyasiga ta'siri SEM tahlillari keltirilgan: 28 nm qalinlikdagi Fe qatlamlari 700 ^{0}C haroratda 10 daqiqa termik ishlov jarayonida to'liq parchalanmay, notekis morfologiyali strukturalar hosil qilgani, 12 nm qalinlikdagi qatlamlarda esa ancha kichik va bir jinsli nanozarrachalar tizimi shakllangani aniqlandi (3-rasm).



3-rasm. Turli tagliklar va qalinliklardagi Fe qatlamining 700 ^{0}C da 10 daqiqa termik ishlov berilgandan keyingi sirt morfologiyalari SEM tasvirlari.


Bunda SiO_2 sirtida o`rtacha qiymati 78 nm, $Al_2O_3/SiO_2$ sirtida 66 nm va $TiO_2/SiO_2$ sirtida esa 56 nm o`lchamdagi nanozarralar aniqlandi. Nanozarralar

o`lchamini boshqarish maqsadida amalga oshirilgan tadqiqotlarda 3-20 nm qalinlikdagi Fe yupqa qatlamlari $SiO_2$/Si namuna sirtida EB-PVD usulida hosil qilindi. Olingan yupqa qatlamlarga 700 $^0$C da 5 min termik ishlov berilganda ulardan hosil bo`ladigan zarralar SEM orqali tahlil qilindi (4-rasm). 8-9 nm qalinlikdagi yupqa qatlamdan o`rtacha o`lchami 25-30 nm bo`lgan va zichligi 300 zarra/μm^2 nanozarralar shakllanishi aniqlandi.

Bundan tashqari nanozarralar diametri (d) va yupqa qatlam qalinligi (h) orasidagi o`zaro bog`liqlik (1) ifoda orqali hisoblandi:

$$d=k\cdot h \qquad (1)$$


unga ko`ra, adabiyotlarda keltirilgan k koeffitsient o`zgarish oralig`i [2-10] dan [4-6] oraliqqacha toraytirildi. Bu tadqiqot kerakli o`lchamdagi nanozarralar sintezida yuqori aniqlikda ishlash imkoniyatini yanada oshiradi va zarralar o`lchamini qatlam qalinligi orqali boshqarish imkonini beradi.



4-rasm. Turli qalinlikdagi Fe yupqa qatlamlarining 700 ^{0}C da 5 min termik ishlovdan so`ng SiO_2/Si sirtida hosil qilgan zarralari morfologiyasi.


Nanozarralar o`lchamini boshqarishda termik ishlov haroratining ta`sirini aniqlash uchun turli haroratlarda olib borilgan tadqiqotlarda esa 700-750 ^{0}C harorat oralig`i eng kichik diametrli va eng yuqori zichlikdagi Fe nanozarralari shakllanishi uchun zarur muhitni yaratishi aniqlandi. 800 C va undan yuqori haroratlarda esa sirtda atomlar migratsiyasi, Osvald yetilishi va koalisensiya jarayonlari hisobiga zarralar o`lchamlari oshib ketishi tasdiqlandi.

Nanozarralar o`lchami nafaqat boshlang`ich qatlam qalinligi va termik ishlov haororatiga, balki ular termik ishlov davomiyligiga ham bog`liq va bu tadqiqot natijalari esa quyidagi xulosalarni berdi:



5-rasm. Turli haroratlarda termik ishlov berilgan 8-9 nm qalinlikdagi Fe yupqa qatlamidan hosil bo`lgan zarralar sirt morfologiyasi va ularning haroratga bog`liqlik grafigi.

Termik ishlov berish vaqti istalgancha davom etmasligi, va bunda ishlov vaqti haddan tashqari ko`p bo`lsa, nanozarralar qo`shni atomlar bilan qo`shilib ketish xavfini oshiradi. Tadqiqot natijalaridan ko`rinib turibdiki, 10 daqiqa davom etgan termik ishlovdan so`ng, zarralarning katta qismi koalisensiyaga uchragan va o`rtacha diametri 5 daqiqalik termik ishlovga qaraganda 2 baravar, zichligi esa 2 barvardan ko`proq kamayganligi aniqlandi. 15 daqiqalik termik ishlov natijalari esa 5 daqiqalik bilan solishtirilganda diamteri deyarli 3 barobar, zichligi 7 barobarga kamayib ketganligi aniqladi.




SiO_2(160 nm)/Si, 700 °C,

6-rasm. 700 C haroratda turli vaqt davomiyligida termik ishlov berilgan 8-9 nm qalinlikdagi Fe yupqa qatlamidan hosil bo`lgan zarralar SEM tasvirlari va sirt taqsimot grafiklari.

Yuqorida bayon qilingan amorf SiO_2 va Al_2O_3 qatlamlar sirtida hosil qilingan nanozarralar shakl jihatidan sferik va kvazi-sferik ekanligi SEM tasvirlaridan ma`lum.

Ammo kristall tagliklar sirtida Fe nanozarralari hosil qilish bo`yicha tadqiqotlar hozirgi kunda dunyo adabiyotlarida kam uchraydi. Sapfir va anataz fazadagi $TiO_2$ bufer qatlamlari sirtida 8-9 nm qalinlikdagi Fe yupqa qatlamiga termik ishlov berish natijasida hosil bo`lgan nanozarralar morfologiyasi shuni ko`rsatadiki (7-rasm), sapfir taglikda zarrachalar o`rtacha o`lchami 68 nm va zichligi 22 zarra/$\mu m^2$, $TiO_2$ da esa o`rtacha o`lchami 56 nm, zichligi 87 zarra/μm^2.




7-rasm. Sapfir va TiO_2 bufer qatlami sirtida hosil qilingan Fe nanozarralari.

Bu natijalar SiO_2 va Al_2O_3 bilan taqqoslaganda, TiO_2 bufer qatlami va sapfir taglikda atomlarning sirtdagi diffuziyasi yaxshi kechganligi va bu zarralar o`rtacha o`lchamining yiriklashishiga asosiy omil bo`lganligi bilan izohlandi. Bu yerda yana bir jihat, zarralarning shakli qirrali tuzilishga ega ekanligi bu esa taglikning kristallik xususiyati tufayli bo`lishi mumkinligi bilan izohlandi.

To‘rtinchi bob "Katalizator zarralari hamda bufer qatlami parametrlari va tabiatining UNN sinteziga ta'siri" deb nomlangan bo'lib, unda UNN nukleatsiyasi va o'sish mexanizmlarining katalizator zarrachalari bilan bog'liqligi tahlil qilingan: uglerod atomlarining katalizator sirtida adsorbsiyalanishi, zarracha ichiga diffuziyalanishi va kritik konsentratsiyaga yetgach grafitik faza ko'rinishida ajralib chiqishi jarayonlari o'rganildi. Ko'ndalang kesim SEM tasvirlarida katalizator zarrachalarining nanonaycha uchida joylashishi UNN o'sishi uchdan o'sish (tip-growth) mexanizmi asosida kechganini tasdiqladi.


CVD usulida sintez qilingan (600 °C, 5 min, Ar/C_2H_2=2:2) namunaning SEM va TEM tahlillari uglerod nanonaychalari (UNN) o‘sishida katalizator zarrachalaridagi nukleatsiya jarayoni hal qiluvchi bosqich ekanligini ko‘rsatdi. Tajribada zarrachalarning faqat bir qismidangina ingichka UNNlar o‘sib chiqqan, asosiy qismi esa faol o‘sish markaziga aylanmagan (8a-rasm).

Bunga uglerod atomlarining zarrachaga kirish va ichki diffuziya tezliklari o‘rtasidagi muvozanatning buzilishi sabab bo‘lgan: uglerod zarracha ichiga diffuziyalanib to‘yinish darajasiga (supersaturatsiya) yetish o‘rniga uning sirtida to‘planib, zarrachani passivlovchi «yadro–qobiq» (core–shell) yoki nanopiyozcha strukturasini shakllantirgan (katalizator bloklanishi/zaharlanishi). Shuningdek, o‘sib borayotgan UNN devorlaridagi strukturaviy nuqsonlar katalizator bilan kuchli ta’sirlashib, uning aktiv massasining bir qismini yulib ketishi oqibatida o‘sish terminatsiyasi sodir bo‘lishi TEM orqali tasdiqlandi.



8-rasm. a) 600 ºC harorat va (Ar/C_2H_2=2:2) gaz oqimida sintez qilingan UNNlar SEM tasviri va b) 700 ºC harorat va (Ar/C_2H_2=7:2) gaz oqimida sintez qilingan UNNlar TEM tasviri

Ushbu eksperimental morfologik natijalar atomistik simulyatsiyalarda keltirilgan uglerod to‘planishi, supersaturatsiya va nukleatsiya mexanizmlari bilan to‘liq mos kelib, yuqori zichlikdagi sifatli UNN olish uchun diffuziya va sirt reaksiyalari kinetik muvozanatini aniq boshqarish zarurligini ko‘rsatadi.




9-rasm. Uchdan o`sish mexanizmi asosida shakllangan UNN lar ko`ndalang kesim SEM tasviri (a) va nanonaychalar sifatining gaz sarfi parmetrlariga bog`liqligi grafigi (b), Si taglik sirtida sintez qilingan UNN real tasviri (c), CVD jarayonining vaqt bo`yicha xronologiyasi (d).

Eksperimental natijalar UNNlarning o‘sishi asosan VLS (*Vapor–Liquid–Solid*) va uchdan o‘sish (*tip-growth*) mexanizmlari orqali kechganini ko‘rsatdi. Ko‘ndalang kesim SEM tasvirlarida o‘sayotgan nanonaychalar uchida ularning diametriga teng yoki biroz yirikroq bo‘lgan katalizator zarrachalari (kontrastli nuqtalar) mavjudligi aniqlandi. Zarrachalarning substrat yuzasida qolmasdan (*base-growth* o‘rniga) nanonaycha uchi bilan yuqoriga ko‘tarilishi katalizator hamda substrat o‘rtasidagi

adgezion o‘zaro ta’sir kuchi nisbatan zaif ekanligidan dalolat beradi; natijada uglerodning yarim suyuqlangan zarracha ichida diffuziyalanishi va supersaturatsiyasi zarrachani taglikdan ajratib, uchdan o‘sish rejimini ta’minlagan.

Raman spektroskopiyasi tahlillari gaz komponentlari (C_2H_2:Ar) nisbati UNNning strukturaviy mukammalligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini aniqladi. C_2H_2:Ar $= 1.2:7$ rejimida I_D/I_G nisbati minimal qiymatga (0.42) yetib, eng yuqori darajadagi kristallik va minimal nuqsonlilikka erishildi. Atsetilen sarfining ortishi (C_2H_2:Ar $= 2.0:7$) esa sirtda amorf uglerod to‘planishi hisobiga nuqsonlilik darajasini keskin oshirib yubordi ($I_D/I_G = 1.62$).


Katalizator morfologiyasi va hosil bo‘layotgan uglerod nanonaychalarining (UNN) strukturaviy sifatiga taglik hamda bufer qatlamining ta’siri SEM va Raman spektroskopiyasi yordamida qiyosiy o‘rganildi.



10-rasm. Turli tagliklarda sintez qilingan UNNlari sirt morfologiyasi (a) va Raman spektrlari (b).


